

SAFAYEVA Soliha Alixon qizi

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Dinshunoslik yo'nalishi
2-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: ALIMOVA Mahfuza Faxruddinovna

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy
o'rganish UNESCO kafedrası dotsenti*

IMOM MOTURIDIYNING QUR'ONI KARIM FASOHATINI ANGLASHDAGI YONDASHUVI ("FOTIHA" SURASINING TAFSIRI MISOLIDA)

THE APPROACH OF IMAM MATURIDI IN UNDERSTANDING THE ELOQUENCE OF THE HOLY QUR'AN (ON THE EXAMPLE OF THE INTERPRETATION OF SURAH AL-FATIHA)

ПОДХОД ИМАМА МАТУРИДИ К ПОНИМАНИЮ КРАСНОРЕЧИЯ СВЯЩЕННОГО КОРАНА (НА ПРИМЕРЕ ТОЛКОВАНИЯ СУРЫ «АЛЬ-ФАТИХА»)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Imom Abu Mansur Moturidiy "Ta'vilat al-Qur'on" asarida Qur'oni karim oyatlaridagi o'ziga xos fasohat va uni anglash va talqin etishdagi yondashuvlar "Fotiha" surasi misolida tahlil qilinadi. Allomaning asaridan foydalanilib, ta'vil va tafsir o'rtasidagi farq, oyatlarning lug'aviy, uslubiy hamda ma'naviy tahlili yoritilgan. Shuningdek, Moturidiy tafsirida tilshunoslik, kalom va fiqh ilmlarining uyg'unligi, aqliy va naqliy dalillardan foydalanishdagi muvozanat, oyatlar fasohatini ochishdagi ijtimohiy yondashuvlar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Imom Moturidiy, tafsir, fasohat, ta'vil, Qur'on ilmlari, "Fotiha" surasi, kalom, lug'at, balog'at.

Annotation. This article analyzes the unique eloquence of the Qur'anic verses and Imam Abu Mansur al-Maturidi's approach to understanding and interpreting them in his work "Ta'wilat al-Qur'an", using Surah Al-Fatiha as an example. Drawing on the scholar's commentary, the article explains the

difference between ta'wil and tafsir, and explores the lexical, stylistic, and semantic analysis of the verses. Furthermore, it examines the harmony of linguistics, theology (kalam), and jurisprudence (fiqh) in al-Maturidi's exegesis, the balance between rational and transmitted evidence, and his interpretative methods in uncovering the eloquence of the Qur'anic text.

Keywords: Imam Maturidi, tafsir, eloquence, ta'wil, Qur'anic sciences, Surah Al-Fatiha, kalam, linguistics, rhetoric.

Аннотация. В данной статье анализируется своеобразное красноречие аятов Корана и подход имама Абу Мансура Матуриди к их пониманию и толкованию в труде «Та'вилат аль-Куран» на примере суры «Аль-Фатиха». На основе комментариев ученого раскрываются различия между понятиями та'вил и тафсир, а также проводится лексический, стилистический и смысловой анализ аятов. Кроме того, рассматривается взаимосвязь лингвистики, калама и фикха в толковании Матуриди, баланс между рациональными и переданными доказательствами, а также его иджтихадный подход к раскрытию красноречия коранического текста.

Ключевые слова: Имам Матуриди, тафсир, красноречие, та'вил, науки Корана, сура «Аль-Фатиха», калам, лингвистика, риторика.

KIRISH

O'z zamonasidayoq "Imom al-Hudo", "Imom al-mutakallimin" kabi sharaflil nomlar bilan e'tirof qilingan Imom Abu Mansur Moturidiy o'zining ilmi, keng tafakkuri va boy ma'naviy dunyosi bilan Islom dini rivojiga munosib hissa qo'shgan. Olimning to'liq ismi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiy bo'lib, 870-yilda Samarqandning Moturid qishlog'ida tavallud topgan. Alloma ilk ilm tahsilini Samarqanddagi "Iyoziy" madrasasida oldi. Hanafiy mazhabidan yetishib chiqqan Abu Bakr Ahmad al-Juzjoni, Abu Nasr Ahmad ibn Husayn al-Iyodiy, Nusayr ibn Yahyo al-Balxiy, Muhammad ibn Muqotil ar-Roziy kabi yetuk olimlar Moturidiyga ustozlik qildilar [2]. O'sha davrning ilmiy muhiti olimning ma'naviy kamolotida muhim ahamiyat kasb etdi. Imom Moturidiy butun umr tafsir, kalom va fiqh fanlaridan dars berib, Abu Ahmad al-Iyodiy, Abul Hasan Ali ibn Sayyid ar-Rustug'foni, Abu Bakr as-Samarqandiy, Makhul an-Nasafi, Abul Mu'in an-Nasafi, Abulyusr al-Pazdaviy kabi shogirdlar yetishtirdi. Alloma Subkiy shunday deydi: "U din

asoslariga aqliy dalillar bilan mustahkam asos yaratdi va ahli sunnani og‘ish hamda tafriqadan himoya qildi.” [12:348]. Olim 944-yilda vafot etdi va vasiyatiga ko‘ra, Samarqanddagi Chokardiza qabristoniga dafn etildi.

ASOSIY QISM

Misr diyorining vaqf ishlari vaziri Shayx Usoma Azhariy manbalarda Imom Moturidiyning tafsir, kalom, fiqh va usul al-fiqhga doir 20 dan ortiq asarlar yozib qoldirgani keltirilganini ta’kidlaydi [7]. Shunday bo‘lsa-da, ularning aksariyati bugungi kunga qadar yetib kelmagan.

Ulrix Rudolf olimning Movarounnahrda shakllangan sunniy kalom tizimining asoschilaridan biri ekanini ta’kidlab shunday deydi: “Imom Moturidiy Qur’on xabarlariga suyanagan holda aqlga asoslangan shunday bir ilohiyot tizimini ishlab chiqdiki, u mo’tazila oqimining haddan oshgan ratsionalizmiga qarshi himoya bo‘la oldi.” [6:47].

Frank Griffel bu moturidiylik ta’limotining falsafiy mohiyatini shunday izohlaydi: “Moturidiylik maktabi aql va vahiy o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashga qaratilgan murakkab bir urinish bo‘lib, u kalom bilan falsafani bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘taydi.” [4:128].

Olimning meros bo‘lib qolgan asosiy asarlari — “Kitob at-Tavhid” va “Ta’vilot ahl as-sunna”dir. “Kitob at-Tavhid”da islom dinining asosiy e’tiqodiy qarashlari bayon etilgan bo‘lib, asardan o‘sha davrda adashgan firqalarga berilgan raddiyalar ham o‘rin olgan. Ushbu asar ahli sunna val-jamoa aqidasiini sof saqlab qolishda katta ahamiyat kasb etdi.

Abu Mansur Moturidiyning shoh asari — “Ta’vilot ahl as-sunna” (yoki “Ta’vilot al-Qur’on”) Qur’oni karim tafsirining yetuk namunasi bo‘lib, allomaning yuksak tafakkur va ulkan iste’dod namoyandasi ekanini ko‘rsatadi. Moturidiyning ilmiy merosi, xossatan tafsirdagi yondashuvini chuqur o‘rgangan olim Ahmad Sa’d Damanhuriy o‘zining «الامام الماتريدي و منهج أهل السنة في تفسير القرآن» (“Imom Moturidiy va ahli sunnaning Qur’on tafsiridagi manhaji”) nomli asarida “Ta’vilot al-Qur’on”ning 24 ta uslubiy jihatlarini birma-bir sanab chiqqan. Jumladan, olim Moturidiy muhkam oyatlarni tasfir qilishga “g‘arq bo‘lib”, bir oyatning tafsirini bir nechta sahifada bayon qilganini, shuningdek, har bir oyatni daqiq qismlarigacha

jumlama-jumla tafsir qilganini alohida ta’kidlaydi [8:88]. Bundan ko‘rinadiki, olimning maqsadi oyatlarning o‘stidagi ma’nolarga imkon qadar ko‘proq tushunish, ularda namoyon bo‘ladigan fasohat va balog‘atni anglash va anglatishdan iborat bo‘lgan. Aynan shu harakat olimning ta’vilda sunniy aqidaga zid qarashlarni ochib berishiga asos bo‘lib xizmat qildi.

Ma’lumki, Qur’oni karim so‘nggi tavhidiy din bo‘lgan Islomning asosini tashkil qiluvchi ilohiy kitobdir. Qur’onning bosh maqsadi esa insonlarni to‘g‘ri yo‘lga, hidoyatga boshlashdir. Tilshunos olimlar ushbu kitobning hech bir jihatdan bashariy so‘zlarga o‘xshamasligini oyatlardagi ulkan fasohat namunalarida namoyon bo‘lishini alohida ta’kidlaydilar. Balog‘at ilmi ta’rifida “Fasohat” — so‘z, ibora yoki nutqning talaffuz va ma’noda nuqsonsiz bo‘lishi, quloqqa yoqimli va tushunishga oson bo‘lishidir. Qur’oni karimning fasohati esa undagi so‘z va iboralarning ulkan ma’nolarni o‘zida jamlashi, talaffuz va ohangda nuqsonsiz bo‘lishi bilan birga o‘ziga xos tushunarli tarzda ifodalangani bilan izohlanadi. Bu haqda Qur’oni karimning bir qancha oyatlari, jumladan “Baqara” surasi 23-oyatda shunday deyilgan: **“Va agar bandamizga nozil qilgan narsamizdan shubhada bo‘lsangiz, unga o‘xshash bir sura keltiring va Allohdan o‘zga guvohlaringizni chaqiring, agar rostgo‘ylardan bo‘lsangiz”** [5].

Imom Abdulqahhor ibn Abdurrahmon al-Jurjoniy (v. 471 h) o‘zining “Daloil ul-e’joz” asarida Qur’oni Karimning ilohiy mo’jiza ekanini undagi oyatlarning fasohatini tahlil qilish orqali bayon qilgan [14:97]. Shu o‘rinda mufasssirlardan talab qilinadigan eng muhim shartlardan biri ham aynan tilshunoslik va balog‘at ilmini chuqur egallash ekanini ta’kidlash joiz. *Bu xususda qarang:* ([9:38];[10:256];[13:329]).

Doktor Muhammad Nazir Ayyod Imom Moturidiyning tilshunoslik, arab tili va she’riyatni o‘rganishga kuchli e’tibor qaratganini ta’kidlab shunday deydi: “U balog‘at uslublari, xossatan, iyjozul-hazf (so‘zni qisqa qilish uchun tushirib qoldirish), itnab (so‘zni uzun qilish), ta’kid va hokazolarga ham qattiq e’tibor qaratgan.” [1:25]. Imom Moturidiyning tilshunoslik va uning asoslari, aqida, fiqh, balog‘at, shari’at ilmlari borasida yetuk olim bo‘lganini “Ta’vilot al-Qur’on” o‘zining qadr-qimmatini va ahamiyatini bilan muallifdan keyin kelgan ulamolar-u mufasssirlarning ko‘pchiligiga yaqqol ta’sir ko‘rsatganidan bilish mumkin.

Imom Moturidiy o'zining tafsirida oyatlardagi fasohat xususiyatlarni anglash va tafsir qilishda yangicha yondashuv taqdim qiladi. Bu yondashuv "Ta'vilot al-Qur'on" asarining nomida ham o'z ifodasini topgan. Muallif asar muqaddimasida ta'vil va tafsirning farqini bayon qilar ekan, tafsirda yagona ma'no ustida qat'iy to'xtamga kelinishi, ta'vilda esa bir qancha ehtimoliy ma'nolar ketma-ket zikr qilinishini keltirib o'tadi. O'zi esa ma'nolarni izohlashda avval bir to'xtamga kelingan fikr ya'ni tafsirni keltirib, ortidan boshqa ehtimoliy ta'villarni ham sanab o'tish usulini qo'llaydi. Asarda har bir masalaning yakunida **"Yana ham Alloh bilguvchiroq!", "Muvaffaqiyat Alloh dandir!"** kabi iboralarning takrorlanishi holati kuzatiladi [1:41]. Bu esa olimning omonatdorligi, oyatlarni tafsir qilishda nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashganini ko'rsatadi.

Allomaning Qur'on fasohatini anglashdagi yana bir yondashuvi har bir oyatni tafsir qilishda paydo bo'ladigan ilmiy masalani mavjud oyat va hadislar yordamida chuqur tahlil qilishdan iborat. Olim avval masalaning yechimini taqdim qilib, so'ngra tahlilni bayon qilgan. Jumladan, "Fotiha" surasining tafsirida bahs qilingan ilk mavzu "tasmiya"ning Qur'on oyati ekani, lekin "Fotiha" surasining oyati emasligi haqida bo'lgan. Alloma ushbu hukmni avval aytib, so'ngra bir qancha dalillar bilan o'z fikrini isbotlaydi. Doktor Muhammad Nazir Ayyod olimning ushbu uslubi haqida shunday degan: "...Muallif o'zining so'ziga yoki ilgari surgan fikrining to'g'ri ekaniga Qur'ondan dalil keltiradi. Masalan, u oyatni zikr qiladi-da, undan boshqa oyatlar yuzasidan o'zi ilgari surgan fikrning to'g'riligiga dalolat qiladigan ma'nolarni chiqarib oladi." [1:24]. Bu esa bir tomondan, muallif Qur'on oyatlarini butun vujudi bilan tafsir qilgani, undagi fasohatni to'liq anglab yetganini ko'rsatsa, boshqa tomondan olimning naql va aqlning har ikkisidan o'z o'rnida mahorat bilan foydalanganidan dalolat beradi.

Imom Moturidiy tasmiyaning Qur'ondagi o'rnini batafsil bayon qilgandan so'ng "Fotiha" surasining har bir musulmon hayotida naqadar ahamiyatli ekaniga urg'u beradi. Uning nazdida ushbu sura Qur'onning o'ziga xos "ochuvchi"si ekani quyidagicha bayon qilingan: "Bizdagi asl qoida shuki, Fotihat al-Qur'on surasi o'z ichiga qamrab olgan ma'no bashariyatning barchasiga farzdir. Chunki unda Allohga hamd aytilish bor. Uni ulug'lik bilan vasflash, yagona deb e'tiqod

qilish, Undan madad va hidoyat so'rash bor. Bularning barchasi bashariyat ichidan aqli raso bo'lgan barcha-barcha insonlarga lozimdir. Chunki uning ma'nosida Yaratuvchi Zotni yaxshilik bilan tanish, Uni o'zi sazovor bo'lgan vasflar bilan Unga maqtovlar aytilish bor." [1:41]. Haqiqatan ham, bu ma'nolar ilohiy kitobning ilk surasida, bor yo'g'i yetti oyatda fasohat bilan bayon qilingan. Imom Moturidiyning oyatlarni sharhlash uslubi esa ushbu oyatlardan olinadigan fiqhiy va e'tiqodiy hukmlar, har bir so'zning asl mohiyati, keng aql va mustahkam naqlarga tayangan tahlillarni o'z ichiga oladi.

Imom Moturidiy surani tafsir qilishdan avval undagi ma'nolarni muxtasar tartiblaydi. Avvalgi oyatlarda qanday nuktalar borligi haqidagi mulohazalarni qisqa bayon qilgandan so'ng oyatlar ta'viliga "g'arq bo'ladi". Quyida ushbu muxtasar xulosalardan ba'zilarini keltiriladi:

➤ "الحمد" (al-hamdu) so'zidagi "al" artikli Imomning nazdida "Barcha yaxshiliklarning hosili" bo'lib, birgina shu harf o'zida barcha yaxshilik va maqtovlarni jamlaydi, "الله" - yagona Allohga xoslaydi.

➤ "رب العالمين" (Robbi-l-a'lamin) – jumlasida vahdoniyatning iqrori va rububiyatning tahqiqi borligi ta'kidlanadi. Imom Moturidiy: "Va bu so'z ushbu so'zlarni aytuvchining qalbida olamlardagi barcha yaxshiliklarni tasqid qilishini vojib qiladi", - deydi.

➤ 2-oyatda Alloh taoloning ikki ismi bilan tavsifi kelganligi aytiladi. Biri "Ar-Rohman" bo'lib, "Alloh va Ar-Rohman ismlarining ma'nosini U zotdan boshqa hech kimga nisbat berilishi mumkin emas va boshqa hech kim bu ismlarning asl ma'nosiga haqli bo'la olmas"ligi ta'kidlanadi.

➤ Ikkinchi vasf "الرحيم" (ar-Rohim) bo'lib, Imomning nazdida bu Allohga berilgan rahmat vasfidir. Najot topganlarning najoti, saodatli bo'lganlarning saodati, halok bo'lganlarning omon qolishi mana shu rahmat sababidan ekani keltirilgan. Shuningdek, Moturidiyning quyidagi so'zlarida faqat Allohga xoslangan "الرحمان" (ar-Rohman) sifatidan farqli o'laroq, bandalar bir-birlariga "Rahim" bo'la olishlariga ishora bor: "الرحمان" (ar-Rohman) ismi faqatgina Allohga xos bo'lib, Undan boshqasiga bu ismni berib bo'lmaydi. "الرحيم" (ar-Rohim) ismi bilan esa Alloh taolodan boshqani ham nomlash mumkin. Shuning uchun ham bu ikki ism "rahmat" o'zagidan chiqarib olingani ehtimoli bor bo'lsa-da, "الرحمان" (ar-Rohman) Allohning

zotiy ismi, “الرحيم” (ar-Rohiym) esa Uning fe’liy ismidir, deb ta’rif beriladi.” [1:45].

➤ “مالك يوم الدين” (Maliki yavmi-d-din) jumlasida oxiratga iymon va Alloh taolaga chiroyli maqto’v borligi, U Zotga ixlos va sidq bilan ibodat qilish lozim ekani alohida ta’kidlangan. Muallif aynan shu o’rinda “xavf va rajo” holatini ham zikr qilgan.

Imom Moturidiyning oyatlardagi fasohatni, oz so’z bilan ko’p ma’no bildirish mo’jizasi “Fotiha” surasining birinchi oyati tafsiri misolida ko’rish mumkin.

“Ta’vilot al-Qur’on” asarida “الحمد لله” (al-Hamdu) jumlasining muhtasari tafsiri avval kelganiga qaramay, yana bir qancha ma’nolar keltiriladi:

➤ Imom Moturidiy bu jumla bilan Alloh taolo O’ziga hamd aytayotganini, bu esa bandalarining hamd va maqto’vning Undan boshqasiga to’g’ri kelmasligini o’rganishlariga qaratilganini ta’kidlaydi.

➤ Bu jumlada amr ma’nosi ham bor ekani, bu esa “Allo’ga hamd aytinglar”, - kabi buyruqligi izohlanadi.

➤ Ibn Abbos (r.a)ning “hamd” so’zini “shukr” so’zi bilan izohlaganlari keltirilib, shukrning ma’nosi Alloh taolaga itoat qilishdir, deb izohlangan. Bundan esa jumlaning ta’vili Alloh taolaga itoat qilishga buyurish ekani kelib chiqadi. Bu ma’noni chiqarishda Rasululloh (s.a.v) ning **“Shukr qiluvchi banda bo’lmayinmi?”**, - degan hadislarini keltirilgan.¹

Birgina “الحمد لله” (al-Hamdu lillahi) jumlasining batafsil tafsir qilinishi bir tomondan Qur’onning yuksak darajadagi fasohatiga dalil bo’lsa, boshqa tomondan olimning chuqur ilmga asoslangan keng fahmidan dalolat beradi.

Ushbu ma’nolardan so’ng muallif naql yordamida ajoyib qoidani keltirilgan. Imom Moturidiy **“Kim bandalarga shukr qilmasa, Alloh taolaga shukr qilmaydi”**², - hadisini dalil qilgan holatda insonlarga ham shukr qilish mumkinligi, lekin hamd faqat Alloh taolaga

xoslanishini xulosa qilgan [1:50]. Bundan boshqa o’rinlarda ham ko’rinadiki, olimning hadislardan oladigan chuqur ma’nolarini tahlil qilish orqali “Imom Moturidiy faqat aqlga tayangan”, - degan da’volar botil ekanini isbotlash, olimning fahmlari naqadar keng ekanini e’tirof etish mumkin.

“رب العالمين” (Robbi-l-a’lamin) jumlasining tafsirida Ibn Abbos (r.a)ning “سيد العالمين” (“Olamlarning Sayyidi”) degan izohlari keltirilgan. “Robb” so’zi “tarbiya qilish”, “egallik” va “tasarruf qilish” ma’nolarini o’zida jamlashi xulosa qilingan. Bundan boshqa ko’p o’rinlarda ham muallif Ibn Abbos (r.a)dan ko’p iqtibos keltirganiga guvoh bo’lish mumkin. Bu esa Imom Moturidiyning asosiy mezoni saloqlarga ergashish bo’lgani, xalqni oyatlarda yashiringan ma’nolarni tushuntirishni maqsad qilganini ko’rsatadi.

Imom Moturidiyning Qur’on fasohatini anglashdagi yana bir yondashuvi oyatlar tahlilida kalom hamda tafsir ilmi ulamolarining fikrlarini jamlaganligidir. Allomaning tafsirini tahlil qilgan Ahmad Sa’d Damanhuriy shunday deydi: “Imom Moturidiyning tafsiri kalomiy tafsirdir.” [8:21]. Ushbu fikrga dalil sifatida olimning “Fotiha” surasi 3-oyatidagi “عالمين” so’zini ahli kalom va ahli tafsirning fikrini umumlashtirgan holatda tafsir qilganini keltirish mumkin. Bundan keyingi oyatning tafsirida ham muallifning: **“...Ar-Rohman** zotiy ism, **Ar-Rohiym** esa fe’liy ism deb sifatlanadi” [1:54]. kabi tahlili uning oyatlardagi e’tiqodga bog’liq jihatlarga naqadar chuqur e’tibor qaratganidan darak beradi.

“Fotiha” surasining 4-oyati: “مالك يوم الدين” (Maliki yavmi-d-din)ning tafsirida olimning Qur’oni karimning boshqa oyatlaridan dalil keltirganini ko’rish mumkin. Muallif dalil sifatida foydalangan oyatlar qiyomat kuni haqidagi oyatlar bo’lib, “يوم الدين” (yavm ad-din)ni izohlash uchun keltirilgan. Alloh taoloning “مالك” (Malik) ismini sharhlash uchun esa avvalgi oyatlarda bo’lgani kabi aqidaviy yondashuv namoyon bo’ladi.

“إِيَّاكَ نَعْبُدُ وَإِيَّاكَ نَسْتَعِينُ” (“Sengagina ibodat qilamiz va Sendangina yordam so’raymiz”)³oyatining tafsirida Imom Moturidiy tera ilm, zakovat egasi ekani ham ko’rinadi. Bu oyatdan murod amr ekanini ta’kidlagan olim e’tiqod masalasida **“in shaa Alloh!”** (“agar Alloh xohlasa!”) jumlasini ishlatish nojoizligini shunday bayon qiladi: “Agar bu mazhabning aqidasi

¹ Bu hadis “Sahih al-Buxoriy”ning “ko’ngilni yumshatuvchi narsalar” bobi, “Tafsir” bobi va “Tahajjud” boblarida turlicha lafzlar bilan kelgan. Shuningdek bu hadis “Sahih Muslim”ning “Munofiqalarning sifatleri” bobida ham kelgan.

² Ahmad ibn Hanbal. Musnad. 2-jild, 258,295, 302, 388, 461 va 492-betlar, Imom Buxoriy. Al-adab al-mufrad. 218-bet, Abu Dovud. Sunan 2-jild, Odob kitobi, 617-bet, Termiziy. Sunan. Yaxshilik va silai rahm kitobi. 3-jild, 1954-bet.

³ “Fotiha” surasi, 5-oyat.

shak qilish nojoiz bo'lsa, u holda ma'lum bir vaqtlardagina e'tiqod qilinmaydi, balki doimiy e'tiqod qilinadi. Shuning uchun doimiy bo'lgan ishda "in shaa Alloh" deb bo'lmaydi." [1:57].

“اهْدِنَا الصِّرَاطَ الْمُسْتَقِيمَ” (**“Bizni tog'ri yo'lga hidoyat qilgin.”**)⁴ oyati tafsiridan Imom Moturidiy ma'nolarni anglashda qo'llagan yana bir uslubni ko'rsatish mumkin. Bu ma'nolar ichidagi ma'nolarni tartib bilan izohlash uslubidir. Olim shunday deydi: “So'ngra Alloh hidoyat bergan kishining hidoyatni talab qilishining ta'vili ikki tomonga yuzlanadi. Ulardan biri – Alloh taolo boshlab qo'ygan hidoyat ustida barqaror qilib qo'yishini so'rash...” [1:57], - bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, o'sha hidoyatning ziddi bo'lgan zalolatdan panoh so'rab, doimiy ziyoda bo'lishini talab qilish ekanligi ta'kidlangan. Bu tomonga esa Qur'oni Karimning o'zidan **“Ey imon keltirganlar, Allohga imon keltiringlar...”** (“Niso”:136) oyati dalil sifatida keltirilgan. “Chunki hamma vaqt banda o'zidagi imon bilan uning ziddidan himoyalaniy turadi” [1:55]. Bu kabi “ta'vilning ikki tomonga yuzlanishi” uslubi “Ta'vilot al-Qur'on”da ko'p uchraydi. Doktor Muhammad Nazir Ayyod bu borada Imom Moturidiyning oyat mazmuni qabul qilishi mumkin bo'lgan ikki xil yoki uch xil yoxud undan ko'proq aniq talqinlar bilan kifoyalanganini ta'kidlagan [1:24]. Turli ma'nolarning asosi aslida bir ekani, ular birgalikda to'liq va haqiqiy ma'noga dalolat qilishini muallif shu nozik uslub bilan ko'rsatib bergan.

صراط الذين أنعمت عليهم غير المغضوب عليهم ولا الضالين (**“Bizni to'g'ri yo'lga hidoyat qilgin.”**)⁵ oyatidagi fasohat va balog'at ham boshqa oyatlarda bo'lgani kabi Imom Moturidiy tomonidan daqiq qismlarigacha tafsir qilinadi. Alloma bu oyatni insonning hidoyat yo'lida sobit turishi va haqiqatni anglash uchun Allohdan doimiy ravishda yordam so'rash zaruratini ifodalovchi duolar sirasiga kiritadi. U aytadi:

- “صراط الذين أنعمت عليهم” — bu Payg'ambarlar, siddiqlar, shahidlar va solih bandalarning yo'lidir. Chunki Alloh ularni o'z fazl-u rahmati bilan haqiqatni bilish va unga amal qilish ne'mati bilan siylagan.

- “غير المغضوب عليهم” — bu ilmni bilgan, ammo unga amal qilmagan kishilardir. Moturidiy bu toifani yahudiylar misolida keltiradi, chunki ular haqiqatni tan olgan holda unga amal qilmaganlar.

- “ولا الضالين” — bu bilmay, adashib ketgan kishilar, ya'ni nasroniylar misolida keltiriladi. Ular haqiqatni bilmasdan, noto'g'ri yo'l tutganlar.

Olim oyat tafsirida gunohlarni ikki turga bo'linishini ta'kidlaydi:

- 1) Allohning g'azabiga duchor qiluvchi gunoh. U kufrdir.

- 2) Zalolatga boshlovchi gunoh. U kufrdan boshqa gunohlardir [1:67].

Olim ushbu ma'lumotdan avvalroq har bir zalolat Allohning g'azabiga duchor qilishini, shuningdek, Uning g'azabi zalolatga dalolat qilishini keltirgan. Masalaning turli ta'villarini batafsil bayon qilishi ham muallif oyatlardan anglashilgan keng qamrovli ma'nolarni ko'proq fahmlash va foyda olishga intilganini ko'rsatgan. Boshqa tomondan esa, bu ilmdagi omonatdorlikdan darakdir.

“Fotiha” surasidagi ma'nolarning fasohatini keng ochib bergan beqiyos tafsir ushbu suraning fazilati, uning nomlari, butun Qur'oni karimning barcha ma'nolarini o'zida jamlagani haqidagi xabarlar bilan yakunlangan. Jumladan, Ubay ibn Ka'b (r.a) dan rivoyat qilingan ushbu hadis keltirilgan: **“Nabiy (s.a.v.) dedilar: “Senga Tavrotda ham, Injilda ham unga o'xshashi nozil bo'lmagan bir suraning xabarini beraymi?”**. **“Men: “Ha, ey, Allohning Rasuli!” dedim. U zot: “Fotihat al-Qur'on. U takrorlanadigan yetti oyatdir. U menga berilgan buyuk Qur'ondir.”**”⁶

“Fotiha” surasining fazilati borasida ko'plab mufasssirlar bir-biridan mo'jaz xulosalar qilganlar. Jumladan, Mahmud Zamaxshariy “Kashshof” asarida quyidagilarni keltiradi: “Ushbu surada Alloh taologa hamd, Unga ibodat, amri-ma'ruf va nahiy-munkar, va'd va va'idlar zikr qilingan bo'lib, ular Qur'ondagi barcha oyatlar ma'nosini ifodalaydi” [11:105]. Hasan Basriy esa bu sura haqida: “Alloh taolo avvalgi kitoblardagi barcha ilmlarni Qur'onga jamladi. So'ngra, Qur'onni ham mufasssal holda jamlab, uni Fotiha surasiga kiritdi. Kim Fotiha surasining tafsirini bilsa, Qur'onning nozil qilingan barcha ma'nolarini tushunibdi”, degan [3]. Imom Moturidiy esa “Ta'vilot al-Qur'on” asarida ushbu suraning Rasululloh (s.a.v) dan rivoyat qilingan nomlarini muhtasar izohlab bergan.

⁶ Imom Molik. Muvatto. Namoz kitobi, 37-bet; Ahmad ibn Hanbal. Musnad, 4-jild, 21—bet va 5-jild, 114-bet; Buxoriy. Al-Jome' as-sahih. Tafsir kitobi, 1-jild, 1-bet, 15-jild, 3-bet va Fazoilul-Qur'on kitobi, 9-bet.

⁴ “Fotiha” surasi, 6-oyat.

⁵ “Fotiha” surasi 7-oyat

Umuman olganda, “Fotiha” surasining tafsiri misolida Imom Moturidiyning Qur’oni karim fasohatini anglash va tafsir qilishda quyidagi asosiy uslublari namoyon bo’ladi:

birinchidan, oyatlarda kelgan har bir soʻzning lugʻaviy maʼnosi, ularning mohiyati, dalolat qilayotgan mazmuni chuqur tahlil qilinadi;

ikkinchidan, oyatlarni tafsir qilishda taʼvil uslubidan foydalaniladi, bu esa ilmiy omonatdorlikning belgisi sifatida koʻriladi;

uchinchidan, avval masalaning yechimi bayon qilinib, soʻngra naqliy dalillar yordamida chuqur tahlillarga murojaat qilinadi. Bu yondashuv, ayniqsa, muhkam oyatlardan fiqhiy ahkomlar olish jarayonida yaqqol koʻzga tashlanadi;

toʻrtinchidan, oyatlarni anglashda mufasssirlar va mutakallimlarning fikrlari umumiyashtirilib olinadi, baʼzi masalalarda adashgan toifalarga eʼtiqodiy hukmlar borasidagi raddiyalar ham keltiriladi;

beshinchidan, asosiy fikrlar Qur’oni karimning boshqa oyatlari bilan qoʻllab-quvvatlanadi, bu esa muallifning oyatlarni anglashda butun vujud bilan ularga bogʻlanganini koʻrsatadi.

XULOSA

Imom Moturidiyning keng ilmi, yuksak tafakkur egasi ekanligi, naqllarni oʻzining oʻtkir aqli bilan birlashtirgani natijasida tarixda Qur’oni karimning fasohatini anglash va tafsir qilishda yangi qadam qoʻyildi. Olimning bu yoʻlda tutgan uslublari asrlar davomida mufasssirlar, Qur’on ilmlari bilan shugʻullanuvchi olimlar uchun oʻziga xos namuna vazifasini bajardi. Bundan tashqari, omonatdorlik va ixlos bilan yaratilgan ushbu asar hali hamon Ilohiy Kitob mohiyatini anglashni oʻrgatib kelmoqda. Islom taʼlimoti asoslaridan sof eʼtiqod qoidalarini shakllantirgan alloma Imom Abu Mansur Moturidiyning merosi ochilmagan sahifalar va tadqiq qilinmagan xazinalarga boy boʻlib, yildan-yilga ilmiy-amaliy ahamiyati oshib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Abu Mansur Moturidiy. Taʼvilot al-Qur’on (30-juz). Tarjimonlar: Alouddin Hofiy va boshqalar. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, 2021.
2. Boboqulov S. Imom Moturidiy hayoti va ijodi [Elektron resurs] // Muslim.uz. – URL: <https://muslim.uz>. Murojaat sanasi: 08.08.2025.
3. Fotiha surasining tafsiri va fazilatlarini // <https://muslim.uz/uz/e/post/36912-fotiha-surasining-tafsiri-va-fazilatlarini?page=3&per-page=1>. Murojaat sanasi: 15.09.2025.
4. Griffel, Frank. The Formation of Post-Classical Philosophy in Islam. – Oxford University Press, – 2021.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur’on ilmlari: Qur’oni karim eʼjozi (davomi) // <https://muslim.uz/uz/e/post/21631-qur-on-ilmlari-qur-oni-karim-e-joz-i-davomi>. Murojaat sanasi: 14.10.2025.
6. Rudolph, Ulrich. Al-Māturīdī and the Development of Sunnī Theology in Samarqand. – Leiden: Brill, – 2015.
7. Usoma Azhariy. “Moturidiylik – bagʻrikenglik, moʻtadillik va maʼrifat taʼlimoti” mavzusidagi xalqaro konferensiyada soʻzlagan nutqidan. — Samarqand, 29–30-aprel, 2025. – URL: <https://www.maturidi.uz> Murojaat sanasi: 08.08.2025.
8. أحمد سعد الدمنهوري . الإمام الماتريدي ومنهج أهل السنة في تفسير القرآن. – القاهرة: دار النور.
9. الباقلائي، أبو بكر محمد بن الطيب. إعجاز القرآن. تحقيق: السيد أحمد صقر. القاهرة: دار المعارف، ١٩٥٤م.
10. الزركشي، بدر الدين محمد بن عبد الله. البرهان في علوم القرآن. بيروت: دار المعرفة، ١٩٧٢م، ج ٢.
11. الزمخشري، محمود بن عمر. الكشاف عن حقائق التنزيل وعلوم القرآن. بيروت: دار المعرفة.
12. السبكي، تاج الدين عبد الوهاب بن علي. طبقات الشافعية الكبرى. القاهرة: دار الهداية، ١٩٩٢م.
13. السيوطي، جلال الدين عبد الرحمن. الإتقان في علوم القرآن. القاهرة: دار الحديث، ٢٠٠٦م، ج ٢.
14. الجرجاني، عبد القاهر بن عبد الرحمن. دلائل الإعجاز. تحقيق: محمود محمد شاكر. القاهرة: مكتبة الخانجي، ١٩٨٤.